

VOLFGANG AMADEY MOTSART OP.309 N7 C-DUR SONATASINING BO'LIMI TAHLILI

Shukurullayeva Sevinchoy Qahramon qizi

O'zbekiston Davlat Konservatoryasi Nukus filiali

“Musika san’ati” fakulteti

San’atshunoslik: “Musiqashunoslik” mutaxassisligi

2 - kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **v.v.b.dotcent Rajabova Nodira Fattayevna**

Anotasiya: Bu maqolada Volfgang Amadey Motsart, sonata janrining tuzilishi, op.309 n7 C-dur sonatasida birinchi marotaba musiqada haqiqiy odamni tasvirlashga uringanligi va birinchi bo`limining qisqacha tahlili haqida bayon qilingan.

Kalit so`zlar: klassitsizm, sonata, allegro, ekspozitsiya, rivojlov, repriza, andante, menuet, final.

Abstract: This article describes the structure of the sonata genre by Wolfgang Amadeus Mozart, his first attempt to depict a real person in music in his Sonata in C major, op.309 n7, and a brief analysis of the first part.

Keywords: classicism, sonata, allegro, exposition, development, recapitulation, andante, minuet, finale.

Аннотация: В статье описывается структура жанра сонаты Вольфганга Амадея Моцарта, его первая попытка изображения реального человека в музыке в Сонате до мажор, соч. 309 №7, а также краткий анализ первой части.

Ключевые слова: классицизм, соната, аллегро, экспозиция, разработка, реприза, анданте, менуэт, финал.

Musiqqa - bu inson ruhini, his tuyg'ularini, fikrlarini aks ettiruvchi san'at turidir. Musiqiy tahlil esa asarning mazmuni, kompozitsiyasi, ritmik va garmonik xususiyatlarini chuqur o'rganishdir. Bu esa asarlarning badiiy ifodalilik darajasini tushunishga va tasvirlangan g'oyalarni aniqlashga yordam beradi. Tahlil orqali musiqaaning texnik jihatlari va uning jahon san'atidagi o'rni aniqlanadi.

Wolfgang Amadey Mozart (1756-1791) klassik davrning eng buyuk bastakorlaridan biri hisoblanadi. 36 yil umr ko'rgan bo'lishiga qaramasdan ko'plab janrlarda ijod qilgan. Umri davomida 52 ga yaqin simfoniya, 19 opera, sonata, kvartet, kvintet, rekviem va boshqa ko'plab janrlarda ijod qildi. 6 yoshidan boshlab ko'plab konsertlarda qatnashgan. Mohirona ijrosi sababli 18- asr mo'jizasi nomini olgan. Mozart sonata shaklining rivojlanishida muhim ro'l o'ynagan bastakorlardan biri hisoblanadi. U sonata shaklini yanada mukammallashtirgan bastakordir. Mozart sonata shaklini oldingi barokko davriga xos oddiy tuzilishdan chiqib, uni murakkab va chiroyli tuzilishga ega bo'lgan aniq rivojlanishga yo'naltirdi. U sonatalarida oddiy va esda qolarli melodiylarni yaratgan, bu esa uning asarlarini juda tushinarli va ta'sirchan qiladi.

Sonata (italyancha: sonata, lotincha: sonare – „yangramoq“) – bu cholg'u musiqasining yirik janrlaridan biri bo'lib, asosan bitta yoki bir nechta cholg'u asboblari uchun yoziladi. U barokko davridan boshlab shakllangan va klassik hamda romantik davrlarga kelib mukammalshagan. Sonata odatda uch yoki to'rt qismdan iborat bo'lib, har bir qism o'ziga xos xarakter va tuzilishga ega.

Birinchi qism- allegro (allegro tempida) sonata asarining eng muhim va asosiy qismi hisoblanadi va uch oddiy bo'limdan iborat:

Ekspozitsiya- asosiy mavzular taqdim etiladi

Rivojlov- asosiy mavzular o'zgaradi, yangi tonalliklarga og'ishma qo'llaniladi

Repriza-asosiy mavzular yana takrorlanadi, lekin biroz o'zgargan bo'lishi ham mumkin.

Ikkinchi qism-adagio yoki andante (sekin va his tuyg'uli). Bu qism sekin tempda chalinadi va tinchlantirish va chuqur hissiyotlarni ifodalash vazifasini bajaradi. Odatda oddiyroq lirik shaklda yoziladi.

Uchinchi qism- menuet yoki skertso (yengil va sho`x). bu qism uch oddiy bo`limdan iborat. Klassik davrda- menuet (odatda nafis va tantanali), romantik davrda-skertso (tezroq va sho`x). Bu qism ABA shaklida tuziladi: A- tez va jonli, B- o`rtada kontrasli, yumshoqroq bo`lim, A- birinchi bo`lim yana takrorlanadi.

To`rtinchi qism-final (tez va tantanali yakun). Bu qism butun sonataning yakunlovchi bo`limi bo`lib, odatda tez va jo`shqin bo`ladi. Odatda uch xil shaklda bo`ladi: rondo-asosiy ohang qayta-qayta takrorlanib, yangilari bilan aralashadi, sonata shakli-birinchi qismga o`xshash, lekin yengilroq bo`ladi, variatsiya- bitta asosiy mavzu turli usullarda o`zgartiriladi. Sonata bu hikoya kabi: dastlab qiziqarli boshlanadi, keyin chuqur his tuyg`ular bilan davom etadi, sho`x yoki hazilkash qism qo`shiladi va oxirida kuchli va chiroyli yakun bilan tugaydi. Shuning uchun ham sonata klassik musiqa dunyosida eng muhim va mukammal shakllardan biri hisoblanadi. Motsart bu janrda mukammal ijod qilgan kompozitorlardan biridir. Uning sonatalari orasida op.309(op.284) n7 C-dur sonatasi ham mashhur sonatalardan biri hisoblanadi. Bu sonatani 1777-yilda Mannxaym va Parijga sayohat vaqtida yozilgan. Motsart Manxaymda bo`lganida ko`plab talabalarga dars bergan. Ulardan biri Roza Kannabich mashhur Mannxeym sud orkestrining rahbari Iogan Kristian Kannabichning qizi edi. Uning uchun Motsart do majorda 7-sonata pianino sonatasini yaratadi. Keyinchalik Motsart “Andante” sonatasida qizni tasvirlanganligini tushintirdi. Bu asari Motsart musiqada haqiqiy odamni tasvirlashgan uringan yagona misol.

C-dur sonatasi ham ekspozitsiya, rivojlov, repriza bo`limlaridan tashkil topgan holda yozilgan. Ekspozitsiya qismi bosh partiya mavzusini bayon qilishdan boshlanadi. U oddiy ikki qismli shaklda ikkita mavzuga asoslangan holda yozilgan.

Sonata No. 7 in C Major K. 309



Bog`lovchi partiya ham kuychan bo`lib bu yerda D-dur tonalligiga og`ishma yuzaga kelgan.



Yordamchi partiya ham ikkita kuy mavzusiga asoslanadi va u ham oddiy ikki qismli shaklda yozilgan. Bosh va yordamchi partiyalar har bir qismi takrorlanuvchi jumлага asoslangan davriya shaklida bayon qilingan. Yordamchi partiya va ekspozitsiya G-dur tonalligida yakunlanadi.



Sonataning o`rta qismi rivojlov bo`lib, u asosan bosh partiya mavzusi ohanglarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu qismda g-moll, D-dur, A-dur, g-moll tonalliklariga og`ishmalar orqali asosiy C-dur tonalligiga olib kelinadi va reprizani paydo bo`lishiga imkon beradi.





Repriza oddiy emas balki, dinamik repriza shaklida yozilgan. Bosh partiya mavzusining ikkinchi marotaba takrorlanishida o`zgaradi.



Qolgan mavzular asosiy tonallikda yakunlanadi.



Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Morsartning Op. 309 n7 c-dur sonatasining birinchi bo'limi klassik sonata shaklida mukammal tarzda ishlab chiqilgan. Motsart bu sonatasida birinchi marotaba musiqada odamni tasvirlashga uringan. Tahlil davomida, asar bir tomondan, Motsartning musiqiy ifodaning yangi usullarini izlab topishdagi harakatlari, boshqa tomondan esa uning klassik davr an'alariga bo'lgan sodoqatini ko'rsatadi. Asarning birinchi bolimidagi shakl, birinchi va ikkinchi mavzular, ularning o'zaro aloqalari va rivoji, musiqiy ifoda va tasvirlash kuchini ochib beradi. Asar davomida melodik rivojlanish o'zgaruvchan va murakkab bo'lib, har bir yangi mavzu va g'oya avvalgi bo'limning tasvirini rivojlantirish yoki qayta ishlash shaklida namoyon bo'ladi. Bu esa Motsart asarlarga yuqori darajadagi ijodiy yondashuvini ko'rsatadi. Sonata XVIII asrning oxirlarida yaratilgan bo'lsa-da, bugungi kunda ham o'zining musiqiy qiymatini saqlab qolgan. Bugunki kunda ham Motsartning klassik uslubini hozirgi zamon talablariga mos ravishda yangilab, o'z asarlariga ilhom manbai sifatida foydalanishmoqda. Biroq, hozirgi kunda musiqada erkinlik kuchaygan, shuning uchun Mostasrtning klassik shakl va uslublariga asoslanganmusiqiy asarlar ham, zamonaviy musiqaning yangi yondashuvlari bilan birgalikda rivojlanib, ijodiy muhitda o'z o'rnini topmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Trigulova. A.X. Toshkent "Ilm ziyo" 2009 Xorijiy musiqa adabiyoti
2. Abduqodirov. I. Toshkent "O'zbekiston davlat nashriyoti" 2011 Musiqiy san'atning tarixi va nazariyasi
3. Maxmudov.S. Toshkent "Musiqqa nashriyoti" 2008 Motsart va uning musiqasi

4. Muxammedov.B. Toshkent “O`zbekiston musiqa nashriyoti” 2015 Musiqiy kompozitsiya va uning shakllari
5. Sattorov.D. Toshkent “Ma’naviyat” 2012 Klassik musiqaning asosiy yo`nalishlari
6. Xolmuhammedov.A. Toshkent “Musiqqa nashriyoti” 2010 Motsartning musiqiy uslubi
7. Yunusov.T. Toshkent “O`zbekiston musiqa nashriyoti” Musiqiy shakllar nazariyasi
8. Maxmudov.S. Toshkent 2009 Musiqiy janrlar rivoji